1–3 YOSHLI BOLALARDA O‘TKIR RESPIRATOR-SINSITIAL VIRUS INFEKSIYASINING KLINIK KECHISH XUSUSIYATLARINI KASALLIK OG‘IRLIK DARAJASIGA QARAB QIYOSIY O‘RGANISH

Jumaniyazova Durjanoy Xamidbek qizi
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Respirator-sinsitial virus (RSV) infeksiyasi kichik yoshdagi bolalarda yuqori sezuvchanlik va jiddiy asoratlar keltirib chiqarishi bilan ajralib turadigan dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biridir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hayotining birinchi yilida bolalarning 68%igacha qismi RSV bilan kasallansa, 2 yoshning oxiriga kelib deyarli 100% bolalar ushbu infeksiyani boshdan kechiradilar. Global miqyosda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida har yili qariyb 33 million quyi nafas yo‘llarining RSV-assotsiatsiyalangan infeksiyalari qayd etiladi, bu esa taxminan 3,6 million gospitalizatsiyaga va 100 mingdan ortiq o‘lim holatiga olib keladi. Dunyo bo‘ylab davolash xarajatlari yiliga 600 million dollardan oshadi, AQShning o‘zida esa kichik yoshdagi bolalarni davolash uchun yiliga 1,2 milliard dollar sarflanadi.

Tadqiqot maqsadi: 1–3 yoshli bolalarda o‘tkir RSV infeksiyasining klinik kechish xususiyatlarini kasallik og‘irlik darajasiga qarab qiyosiy o‘rganish hamda nafas va yurak-qon tomir tizimlari buzilishlarining erta xavf omillarini aniqlash.

Material va usullar: Tadqiqot «holat-nazorat» (*case-control*) turidagi observatsion tahliliy dizayn asosida bajarildi. Tekshiruvga o‘tkir RSV infeksiyasini boshdan kechirgan 1–3 yoshli bolalar kiritildi. Tashxis immunokimyoviy ekspress-test yordamida verifikatsiya qilindi. Shuningdek, klinik, funksional (Xolter-monitoring, Exo-KG, kardiointervalografiya, tashqi nafas funksiyasi / floumetriya) hamda laborator-immunologik tekshiruvlar (Hb, WBC, Lymph, IDO2, hsTnI, NT-proBNP, IL-6, CRP) o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 1–3 yoshli bolalarda o‘tkir respirator-sinsitial virus (RSV) infeksiyasi og‘ir kechgan guruhdagi bemorlarda yengil shakldagilarga nisbatan tizimli yallig‘lanish va miokard disfunksiyasi markerlari sezilarli darajada yuqori bo‘lishi aniqlandi. Xususan, og‘ir kechish shaklida interleykin-6 (IL-6) ko‘rsatkichi o‘rtacha $18,4 \pm 2,1$ pg/ml ni (nazorat guruhida $5,2 \pm 0,8$ pg/ml), C-reaktiv oqsil (CRP) miqdori эса $32,6 \pm 4,1$ mg/l ni

tashkil etdi. Yurak-qon tomir tizimi tomonidan kuzatiladigan asoratlar (shu jumladan RSV-bog‘liq miokarditlar va ritm buzilishlari) yuqori darajadagi troponin T (hsTnI) ($0,042 \pm 0,006$ ng/ml) va NT-proBNP ($450,2 \pm 52,4$ pg/ml) o‘sishi bilan tavsiflandi. Olib borilgan tahlillarga ko‘ra, vegetoreaktivlikning buzilishi va sistolik/diastolik yuklamalarning ortishi og‘ir shakldagi RSV infeksiyasi rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshirishi isbotlandi (OSh = 3,42; 95% CI: 1,85–6,31). Korrelatsion tahlil natijalarida IL-6 darajasining kasallik og‘irlik darajasi va bronxobstruktif sindromning yaqqolligi bilan o‘rtacha va kuchli darajadagi to‘g‘ri korrelatsion bog‘liqligi aniqlandi ($r = 0,68$; $p < 0,001$). Uzoq muddatli kuzatuvlarda (1–12 oydan keyin) bolalarning 42,5%ida nafas funksiyasining buzilishlari va vegetativ disfunksiya holatlari saqlanib qolishi qayd etildi.

Xulosa. 1–3 yoshli bolalarda o‘tkir RSV infeksiyasining og‘irlik darajasini klinik-funksional va laborator ko‘rsatkichlar asosida qiyosiy baholash nafas hamda yurak-qon tomir tizimlarida yuzaga keladigan uzoq muddatli asoratlarni erta aniqlash va oldini olish (profilaktika) algoritmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.